



RELIGIOUS CONTENT AND SOCIAL IMPACT: EDUCATIONAL AND EXTREMIST APPROACHES

Mamurjon Otaquziyev

Researcher

International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Social network, religious consciousness, reason and tradition, healthy content, radicalism, extremism, “online jihad,” “virtual fatwa.”

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the role and significance of social networks in shaping public opinion through religious content. It examines the positive and negative effects of social media on the development of religious consciousness, effective methods of utilizing these platforms, and their role in strengthening a healthy religious environment in society, all based on scientific evidence.

DINIY KONTENT VA IJTIMOYIY TA’SIR: MA’RIFIY VA EKSTREMISTIK YONDASHUVLAR

Ma’murjon Otaqo’ziyev

Tadqiqotchi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoq, diniy ong, aql va naql, sog‘lom kontent, radikalizm, ekstremizm, “Onlayn jihat”, “virtual fatvo”.

Annatsiya: Mazkur maqolada diniy kontentlar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning diniy ongni rivojlantirishdagi ijobiy va salbiy ta’siri, ulardan samarali foydalanish usullari hamda jamiyatda sog‘lom diniy muhitni mustahkamlashdagi o‘rni ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

РЕЛИГИОЗНЫЙ КОНТЕНТ И СОЦИАЛЬНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ: ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ И ЭКСТРЕМИСТСКИЕ ПОДХОДЫ

Маъмуржон Отақўзиев

Исламоведения Узбекистана

Исследователь Международной академии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная сеть, религиозное сознание, разум и предание, здоровый контент, радикализм, экстремизм, «онлайн-джихад», «виртуальный фетва».

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение социальных сетей в формировании общественного мнения посредством религиозного контента. Рассматриваются положительное и отрицательное влияние социальных сетей на развитие религиозного сознания, методы их эффективного использования, а также их роль в укреплении здоровой религиозной среды в обществе, изложенные на научной основе.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya vositalarining keng ommalashuvi diniy mazmundagi axborotlar tarqalish jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi. Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda nafaqat axborot almashish maydoni, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi eng kuchli platformalardan biriga aylangan. Bir tomondan, onlayn suhbatlar, fiqh saboqlari, Qur'on tafsir darslari, ilmiy-ma'rifiy chiqishlar singari diniy kontentlar yosh avlodda sog'lom e'tiqod, bag'rikenglik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi veb-saytlar, "Facebook", "Instagram", "Telegram", "YouTube" platformalarida faol yuritilayotgan rasmiy sahifalar va kanallar sonining yil sayin ortib borayotgani mazkur jarayonning ko'lami va dolzarbligini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan esa, ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik va radikal diniy g'oyalar tarqalishi uchun ham qulay muhit yaratmoqda. "Onlayn jihod", "virtual fatvo" kabi hodisalarning kuchayishi diniy ong yetarli shakllanmagan foydalanuvchilarni manipulyatsiya qilish, ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini oshiradi. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekiston davlat organlari tomonidan ekstremistik axborotlar tarqalishiga qarshi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, 2025-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1400 dan ortiq taqiqlangan materiallar ro'yxatining e'lon qilinishi diniy xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Hozirgi sharoitda diniy kontentlar jamoatchilik fikriga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, ularning ma'rifiy (ijobiy) va ekstremistik (salbiy) yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Imom Moturidiy tomonidan ilgari surilgan "aql va naql muvozanati" tamoyili, Y. Habermasning "ommaviy kommunikatsiya maydoni" nazariyasi, W. Lippmanning "ijtimoiy

stereotiplar” haqidagi qarashlari bugungi raqamli makonda diniy idrok shakllanishiga bevosita daxldor nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontentning tarqalish mexanizmlari, uning yoshlar ongiga psixologik va axloqiy ta’siri, ekstremistik axborotlar bilan bog‘liq xavflar hamda O‘zbekiston va xorij tajribasida qo‘llanilayotgan samarali profilaktika metodlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari jamiyatda sog‘lom diniy muhitni shakllantirish, radikal g‘oyalarga qarshi immunitetni kuchaytirish va axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan diniy kontentlarning jamiyat fikriga ta’sirini kompleks tahlil qilish uchun quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi:

1. Kontent tahlili (Content Analysis)

Ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, YouTube, Instagram, Facebook) joylashtirilgan ma’rifiy va ekstremistik diniy materiallar mavzu, mazmun, til, auditoriyaga ta’sir va emotsional yuklama mezonlari asosida tizimli o‘rganildi.

2. Statistik tahlil

O‘zbekiston musulmonlari idorasi, rasmiy ijtimoiy tarmoqlar hamda davlat organlari tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlar o‘rganildi. Obunachilar soni, kontent ko‘rilishi, izohlar dinamikasi va faollik ko‘rsatkichlari solishtirildi.

3. Qiyosiy tahlil (Comparative Analysis)

Ma’rifiy va ekstremistik kontentlarning tarqalish mexanizmlari, auditoriyaga ta’siri va axloqiy-psixologik oqibatlari o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, O‘zbekiston, BAA, Indoneziya, Turkiya va Malayziya tajribalari solishtirildi.

4. Sotsiologik yondashuv

Yoshlar, diniy ulamolar va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari o‘rtasidagi kuzatishlar va intervyular orqali ularning diniy kontentga bo‘lgan munosabati o‘rganildi.

5. Normativ-huquqiy tahlil

O‘zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi, diniy sohani tartibga solish va ekstremistik materiallarga qarshi kurashishga oid me’yoriy hujjatlari tahlil qilindi.

6. Diskursiv tahlil

Diniy postlar, videolar va sharhlardagi lingvistik va ideologik diskurslar, manipulyativ strategiyalar va emotsional ta’sir vositalari o‘rganildi.

7. Ekspert intervyulari

Ulamolar, diniy soha mutaxassislari, media ekspertlari va psixologlar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning fikrlari tadqiqot natijalarini boyitdi.

Natijalar. Bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'rifiy diniy kontentlar (onlayn suhbatlar, fiqh saboqlari, Qur'on tafsir darslari, muftiylar va ulamolarning chiqishlari) yoshlar ongini sog'lom e'tiqod, bag'rikenglik, tinchlik va mehr-oqibat ruhida shakllantirmoqda.

Jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi vakilliklar, masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining 48 ta veb-sayti, 269 ta "Facebook" sahifa, 183 ta "Instagram" sahifa, 1 513 ta "Telegram" kanal, 1 796 ta guruh, 148 ta "Youtube" kanal faoliyat olib bormoqda.

Internet resursidagi obunachilarning umumiy soni "Facebook" sahifalarida 1 222 116 nafar, "Youtube" kanallarida 6 411 351 nafar, "Instagram" sahifalarida 7 514 020 nafar, "Telegram" kanallarida 22 344 255 nafar, "Telegram" guruhlarida 593 600 nafar, saytlarda 21 840 nafarni tashkil etib, jami 18 107 182 nafarga yetdi. Bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 28 foiz ko'p deganidir.

Ikkinchi tomondan, ekstremistik yoki radikal diniy g'oyalar ham internet orqali keng tarqalib, ayrim hollarda diniy fikrlashi to'la shakllanmagan foydalanuvchilarning ongini buzmoqda. "Virtual jihod", "onlayn da'vat" kabi hodisalar ijtimoiy tarmoqlar orqali radikal fikrlarni legitimlashtirish jarayoniga aylanib bormoqda. Bunday holatlarga qarshi kurashish, aholini radikal g'oyalar manbalaridan ogohlantirish maqsadida 2025-yilning 2-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ekstremizm va terrorizm g'oyalari bilan yo'g'rilgan, respublika hududiga olib kirish, tayyorlash, tarqatish va namoyish etish taqiqlangan 1400 dan ortiq materiallar ro'yxati e'lon qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi "Butunjahon Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan axborot mavjud bo'lgan Internet tarmog'i veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifalaridan foydalanishni cheklash amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, diniy axborotning asosiy vazifasi – inson ongini ma'naviy, axloqiy va ruhiy jihatdan tozalash, e'tiqodni mustahkamlashdir. Ammo ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontentlarni nazorat qilish imkoniyati cheklanganligi sababli, ularning maqsadi, mazmuni va manbasi har doim ham ishonchli emas.

Yuqoridagi holatlardan ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontentlar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish masalasini tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish – zamonaviy diniy-ma'naviy xavfsizlikning muhim omilidir. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy kontentlarning jamiyat fikriga ta'sirini o'rganish, ijobiy (ma'rifiy) va salbiy (ekstremistik) yo'nalishlarni solishtirish, ularning axloqiy-psixologik oqibatlarini tahlil qilish dolzarb masalaga aylandi.

Xususan, yurtimizda yetishib chiqqan, bugungi kundagi eng yirik aqidaviy yo'nalishlardan birining asoschisi Imom Moturidiy asarlarida diniy idrok - "aql va naql muvozanati"da bo'lishi

lozimligi ta'kidlanadi. Mazkur fikrlar bugungi raqamli davrda ham dolzarbligini yo'qotmagan, ya'ni diniy mazmundagi har qanday axborotni aqlan tahlil qilinmasa, u xato xulosalarga olib kelishi mumkin.

Germaniyalik sotsiolog Yurgen Habermasning "ommaviy kommunikatsiya maydoni" (public sphere) nazariyasiga ko'ra, jamoatchilik fikri axborot oqimi va muloqot sifati asosida shakllanadi.

Diniy kontentlar ham aynan shu mexanizm orqali jamoatchilik ongiga ta'sir qiladi: bir tomonda ijobiy diniy da'vat, ikkinchi tomonda esa manipulyativ, ekstremistik diskurslar mavjud. Amerikalik olim V.Lippman "ijtimoiy stereotiplar" nazariyasida shunday degan edi: "Insonlar voqealarni emas, ular haqidagi tasavvurlarni idrok etadi". Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarda diniy mavzudagi tasvirlar, videolar, aforizmlar, xabarlardagi emotsional ifoda fikr shakllanishida real dalildan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Ma'rifiy diniy kontentlar – bu internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatiladigan, diniy bilim, axloq, bag'rikenglik va tinchlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi materiallardir.

Ularning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- diniy savodxonlikni oshirish,
- insonlar orasida sog'lom e'tiqodni shakllantirish,
- turli ekstremistik oqimlarga qarshi immunitet yaratish,
- milliy va diniy qadriyatlarni mustahkamlash.

Bugungi kunda O'zbekistonda bir qator muvaffaqiyatli diniy-ma'rifiy sahifalar va onlayn loyihalar faoliyat yuritmoqda.

"#muftiy_minbari" (Telegram va Instagram)

O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan yuritilayotgan ushbu loyiha 2020-yildan buyon faol. Unda fiqh, aqida, axloq, oilaviy hayot va yoshlar tarbiyasiga oid videodarslar joylashtirilgan.

"#savol_javob" loyihasi (Telegram va Instagram)

2021-yilda tashkil etilgan bu loyiha diniy savollarga rasmiy javoblar berish tizimini yo'lga qo'ygan. Telegram orqali foydalanuvchilardan har oyda 15–20 mingga yaqin diniy savollar kelib tushadi. Mutaxassislar tomonidan bu savollarga ilmiy asosda, ekstremistik yoki noto'g'ri talqinlardan xoli tarzda javob beriladi.

"#jonli_efir" Juma suhbatlari (You Tube)

1. Zayniddin domla Eshonqulov, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi o'rinbosari

https://youtube.com/live/fp0_KRDJe9g?feature=share

2. G'ulomjon domla Xolboyev, Fatvo markazi direktori o'rinbosari

<https://www.youtube.com/watch?v=odDYDbV7Pn8>

3. Jobir domla Elov, Buxoro viloyati bosh imom-xatibi

https://www.youtube.com/live/ihZ_6Cm6JG0?si=dd_wHyjbXLUQTrwl

va boshqa nufuzli ulamolarning juma ma'ruzalari You tube videoxostingi orqali jonli efitra uzatilmoqda. (07.11.2025 yil holatiga)

Ekstremistik diniy kontent – diniy mazmundagi tushunchalardan matn, video, audio yoki grafika shaklida foydalangan holda tarqatiladigan, lekin unda zo'ravonlik, nafrat, bo'linish, beqarorlik yoki siyosiy ekstremizmni targ'ib qiluvchi g'oyalarda mavjud bo'lgan materiallardir. Bu turdagi kontentlar ko'pincha diniy niqob ostida jamiyat barqarorligiga putur yetkazish, yoshlarni yot g'oyalarga jalb etish, davlat va din o'rtasidagi muvozanatni buzish maqsadida tarqatiladi.

Ekstremistik kontentlarning tarqalish shakllari quyidagi ko'rinishlarda uchratish mumkin:

“Onlayn jihat” chaqiriqlari – ijtimoiy tarmoqlarda ayrim anonim sahifa, guruh va kanallar orqali “haqiqiy islom uchun kurash” degan shiorlar ostida tarqatiladi.

“Virtual fatvolar” – diniy ilmsiz shaxslar tomonidan chiqariladigan, aqidaviy jihatdan noto'g'ri fatvolar.

“Soxta hadislar” va “tafsirlar” – matnlarning buzilgan talqinlari orqali radikal qarashlarni asoslash.

Psixologik manipulyatsiyalar – “biz va ular” qarama-qarshiligini yaratish orqali ijtimoiy ajralishni kuchaytirish. Afsuski, jamiyatimizda yuqoridagi “da'vatlar” ta'siriga tushib qolayotgan shaxslarni ham uchratish mumkin. Bunday salbiy holatlarni oldini olish maqsadida O'zbekistonda so'nggi yillarda diniy ekstremistik kontentlarga qarshi tizimli yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiori ostida butun jahon internet tarmog'ida keng faoliyat olib bormoqda. Ulamolarda kengashi a'zolari, Xalqaro islomshunoslik akademiyasi va O'zbekiston musulmonlari idorasi tarkibidagi ilmiy tadqiqot markazlari, o'quv yurtlar ustoz va ilmiy xodimlarini salohiyatidan foydalanilgan holda ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan radikal kontentlarga nisbatan raddiyalar tayyorlash mexanizmi ishlab chiqilgan. Shuningdek, aholida uchraydigan kundalik savollarga javob berish maqsadida “Telegram” va “You Tube” ijtimoiy tarmoqlarida onlayn ilmiy savol-javoblar hamda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ixtilofli masalalar yuzasidan soha mutaxassislari bilan “podcast”lar tashkil etilmoqda. Yuqoridagi shaklda olib borilayotgan tadbirlarning o'z samarasini berayotgani, mazkur lavhalar ostida qoldirilayotgan ijobiy izohlarda ham o'z aksini topmoqda. Qolaversa, yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning ilmiy merosini xalqqa bugungi zamonan talablaridan kelib chiqqan holda yetkazib bera oladigan ulamolarda salohiyatidan unumli foydalanish, sohada olib borilayotgan islohotlar va internet platformasidagi “deradikalizm” targ'ibotini kompleks tarzda kampaniyasini yuritish va “O'zbek modeli” sifatida jahon afkori ommasiga taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Arab Amirliklarining "HEDAYAH" ekstremizm va zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro markazi bilan Din ishlari bo'yicha qo'mita va Musulmonlar idorasi hamkorligi yo'lga qo'yilgan bo'lib, joriy yilning 3-6 noyabr kunlari markaz ekspertlari tomonidan Toshkent shahridagi "Swissôtel Tashkent" mehmonxonasida diniy soha vakillarining media kontent tayyorlash salohiyatini oshirish bo'yicha seminar-treninglari tashkil etildi. Ekspertlar o'zbekistonlik diniy va jamoat yetakchilari uchun kontent tayyorlash va tarqatishning samarali usullari yuzasidan ma'ruzalar qildi.

Shuningdek, diniy soha mutaxassislari tomonidan xalqaro tajribalari bilan tanishish maqsadida Indoneziyaning "Wasathiyah Islam" konsepsiyasi orqali ijtimoiy tarmoqlarda bag'rikenglik g'oyalarini keng targ'ib etayotgani, Turkiyaning "Diyanet" vakolatxonasi tomonidan "Diniy savod" onlayn kurslari joriy etilgani, Malayziyaning "Cyber Dakwah" dasturi yordamida diniy ekstremizmga qarshi onlayn monitoring tizimi yaratilgani kabi loyihalar ham o'rganilib ularning ilmiy yutuqlaridan unumli foydalanish ustida ishlar olib borilmoqda. Mazkur sohada o'rganilgan xorij tajribasidan kelib chiqqan holda quyidagicha jadval hosil qilish mumkin.

Ma'rifiy va ekstremistik diniy kontentlarning ta'sirini solishtirish jadvali

№	Tahlil mezonlari	Ma'rifiy kontent	Ekstremistik kontent
1	Asosiy maqsad	Ma'naviy o'sish, ilmiy asosda e'tiqodni mustahkamlash	Nafrat, ajralish, siyosiy manipulyatsiya
2	Jamoatchilik reaksiyasi	Ishonch, qiziqish, ishtirok	Shubha, qo'rquv, norozilik
3	Yoshlar ongiga ta'siri	E'tiqodiy barqarorlik, tolerantlik	Agitatsiya, agressiv kayfiyat
4	Axloqiy natijalar	Bag'rikenglik, mehr-oqibat	Qattiqqo'llik, radikal qarash
	Davlat xavfsizligiga ta'siri	Barqarorlikni mustahkamlash	Ijtimoiy ziddiyat xavfi

Mazkur tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'rifiy diniy kontentlar ijtimoiy barqarorlik va sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Aksincha, ekstremistik kontentlar esa axloqiy va mafkuraviy inqirozni keltirib chiqarish xavfini oshiradi.

O'rganishlar natijasida ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida diniy sohada ham alohida o'rin egallagani ma'lum bo'ldi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

Diniy-ma'rifiy kontentlar – yoshlar orasida sog'lom e'tiqod, bag'rikenglik va ma'naviy barqarorlikni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Ekstremistik kontentlar esa diniy niqob ostida zo'ravonlik, siyosiy buzg'unchilik va axloqiy inqiroz manbaiga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diniy-ma’rifiy kontentni qo‘llab-quvvatlash, rasmiy manbalarni kuchaytirish va yoshlar bilan interaktiv muloqot – radikal g‘oyalarga qarshi kurashishning samarali yo‘l hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tajribalar (BAA, Indoneziya, Turkiya, Malayziya) O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilganda, axborot maydonidagi diniy-ma’rifiy kontentlar makonida innovatsion, xavfsiz, samarali va yanada takomillashgan modelni shakllantirish mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda diniy ongni shakllantirish, axborot maydonini boshqarish va jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishning eng ta’sirchan vositalaridan biriga aylangan. Ma’rifiy diniy kontentlar yoshlar ongida sog‘lom e’tiqod, bag‘rikenglik, milliy va ma’naviy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirar ekan, ekstremistik kontentlar aksincha, beqarorlik, radikal kayfiyat va ijtimoiy ziddiyatni kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi.

O‘zbekiston tajribasi shuni tasdiqlaydiki, davlatning normativ-huquqiy mexanizmlari, rasmiy diniy institutlar faoliyati, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’rifiy loyiha va platformalar radikal g‘oyalarga qarshi immunitetni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro amaliyotdan o‘rganilgan tajribalar – BAA, Indoneziya, Turkiya va Malayziya misollaridagi ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy ma’rifatni keng targ‘ib qilish modeli – O‘zbekiston sharoitiga ham mos kelishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki:

Ma’rifiy diniy kontentlar jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-madaniy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ekstremistik diniy kontentlar diniy niqob ostida jamiyatning mafkuraviy barqarorligiga tahdid soladi.

Rasmiy manbalar faoliyatini kengaytirish, yoshlar bilan interaktiv muloqotni kuchaytirish va media savodxonlikni oshirish radikal g‘oyalar oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot xavfsizligi diniy-ma’naviy barqarorlikning ajralmas qismiga aylangan.

Kompleks yondashuv – ilmiy, ma’rifiy, huquqiy va raqamli choralarni birlashtirgan holda – diniy axborot maydonini sog‘lom saqlashning eng maqbul usuli hisoblanadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan diniy kontentlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning jamiyatga ta’sirini baholash va xavfsiz diniy-media makon yaratish O‘zbekistonning zamonaviy axborot siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020, 5-oktyabr). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF–6079-son Farmon).

2. Habermas, J. (1991). The structural transformation of the public sphere. MIT Press.
3. Lippmann, W. (1997). Public opinion. Free Press.
4. Moturidiy. (2007). Kitob at-Tavhid. Istanbul nashri.
5. Karimov, M. (2024). Ijtimoiy tarmoqlar va diniy ong: zamonaviy yondashuvlar. Fan va texnologiya.
6. O'zbekiston musulmonlari idorasi. (2025). Media loyihalari faoliyati bo'yicha yillik hisobot.
7. Nazarov, I. (2024). Yoshlarda diniy ekstremizm g'oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari.
<https://scientific-jl.org/tal/article/view/4136>
8. Ibrahim, A. F., Badhrulhisham, A., Meerangani, K. A., Hasan, S. A., Mujahid, N. R., & Jandra, M. W. (2025). The role of digital da'wah in facilitating the adoption of the Islamic lifestyle among Muallaf. International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS).
9. Ministry of Religious Affairs of Indonesia. (2023). Wasathiyah Islam Program: Annual report 2023. Jakarta.
10. Diyanet İşleri Başkanlığı. (2024). Dijital dini iletişim raporu. Ankara.
11. Malaysia Communications Ministry. (2023). Cyber Dakwah Initiative: Digital counter-extremism framework. Kuala Lumpur.